

SELF-EMPLOYMENT AND SMALL BUSINESS DEVELOPMENT

Mardonov Azizjon Sobirovich

Samarkand State University, The direction of economic theory Level 1 Master

Docent. A. Nizamov

Supervisor

Abstract

In a market economy, the role of small business and private entrepreneurship in increasing the country's GDP, ensuring the welfare of the population and achieving economic growth is invaluable. It is no coincidence that in the rapidly developing world, both developing countries and the world's leading developed countries, which are trying to gain a foothold in the world, pay special attention to small business and private entrepreneurship.

Ma'lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining asosiy moliyaviy manbai shaxsiy mablag'lar yoki jalb qilingan investitsion mablag'lari hisoblanadi. Mamlakatimiz hududidagi barcha tijorat banklar xorijiy kredit liniyalari hisobiga loyihalarni moliyalashtirishda, byudjetdan tashqari va shaxsiy mablag'lari hisobiga milliy valyutadagi kredit faoliyatini amalga oshiradi. Shu sababli hozirda butun dunyo miqqosida bu sohaga yuksak e'tibor berilmoqda va uni rivojlantirish qo'llab-quvvatlanmoqda.

O'zini o'zi band qilganlar – bu xizmatlar ko'rsatishda mustaqil ravishda shaxsiy mehnati bilan ishtirok etadigan, mehnat daromadini olish uchun ish olib boruvchi shaxslar. Bunda ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatga olinmaydi va yollanma xodimlar mehnatidan foydalanmaydi.

"O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan ivojlantirish maqsadida yangi ish joylarini yaratish bo'yicha quyidagi asosiy yo'naliishlarni tavsiya qilish mumkin:dastur"ga asoslanib, xizmat ko'rsatish sohalarida xususiy va oilaviy tadbirkorlikni

- yangi turdag'i ishbilarmonlik (kasbiy) xizmatlari ko'chmas mulk bilan savdo qilish, vaqtinchalik erkin pullarni joylashtirish, axborot, marketing va reklama xizmatlari, buxgalteriya balansi va hisobotlarini tuzish, elektron kotiba;

- turistik firmalari, axborot kommunikatsion texnologiya vositalarini tuzatish tayanch punktlari, ijtimoiy psixologik markazlar, turli ta'lim va kasbga o'qitish qisqa kurslari kabi xizmat ko'rsatish ob'ektlarini tashkil etish.

- xizmat ko'rsatish sohalarida alohida yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish to'g'risida me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimini yaratish lozim;
- hayvonlarga qarash bo'yicha xizmatlar – hayvonlarni boqish;
- bolalarni tarbiya qilish, o'qitish bo'yicha xizmatlar, xususiy bog'cha va maktablar, oilaviy bolalar bog'chalari, oilaviy kutubxonalar va boshqa xizmat ko'rsatish ob'ektlarini tashkil etish.

Mamlakatimizda aholini bandligini ta`minlash maqsadida aholini kichik biznes va o`z-o`zini band qilishiga qaratilgan qator siyosiy strategiyalar, qonun loyihalari, president qarori qabul qilinayapti. Xususan, O`zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 8-iyundagi **«Tadbirkorlik faoliyati va o`zini o`zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»** gi qaror qabul qilindi. Unga ko`ra, o`zini o`zi band qilgan shaxslarni ro`yxati kengaytirildi, ularga bir qator qulayliklar va imtiyozlar berildi hamda ularning faoliyatini masofadan turib ro`yxatga olish uchun DSQ tomonidan mobil ilova ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, 2020 yil 1 iyuldan boshlab O`zbekistonda fuqarolarning o`zini o`zi band qilish bo'yicha faoliyat turlarining 67 tagacha kengaytirilishi asosida ro`yxatga olish tartibi joriy etildi. Dastlabki ma'lumotlarga ko`ra, 2020- yilda O`zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti hajmi joriy narxlarda 580 203,2 mlrd. so`mni tashkil etdi va 2019- yil bilan taqqoslaganda 1,6 % ga o'sdi. YaIM deflyator indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 111,9 % ni tashkil etdi.

Bunda kichik tadbirkorlik subyektlarining YaIMdagi ulushi 53.9% ni yoki 312 730 mlrd so`mni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 15,6 birlikni tashkil qildi.

2020- yilning yanvar-dekabrida 93,2 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4 foizga ko'p demakdir.

Hammamizga ma'lumki, dunyo miqyosida covid-19 pandemiyasi haligacha katta muammo bo`lib turibdi. Juhon iqtisodiyoti global inqiroz yoqasiga kelib qoldi. Dunyoda pandemiya tufayli 500 million kishi ishsiz qoldi. 1 oy ichida jahon iqtisodiyoti 400 mln dollardan ortiq zarar ko`rdi. Jumladan, 2020-yilnin so`ngida O`zbekistonda YaIMning o'sish hajmi 6% deb prognoz qilingan edi. Lekin yil yakuniga ko`ra pandemiya tasirida YaIMning o'sishi 0.3% ni tashkil qildi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko`ra, Samarqand viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-sentyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 11532.5 mlrd so`mni tashkil etib, 2019 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 102.9% ga yetdi.

Shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining Tovar aylanmasi 8211.2 mlrd so`m, pasayish sur`ati 94.3%ni, uyushmagan savdo tovar aylanmasi esa 730.7 mlrd so`m, pasayish sur`ati 70.9% ni tashkil etgan.

2020 yilning 8 oyida viloyatimizda kichik tadbirkorlik sub`yektlari tomonidan 5 trln 255 mlrd so`mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 43%ni tashkil etgan.

Bundan ko`rinib turibdiki, mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy qismini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tashkil qilib turibdi.

Xulosa va takliflar:

Tadbirkorlik sohalarida yangi ish o'rnlari tashkil etish, investitsiya, soliq, pul- kredit va ilmiy- texnikaviy siyosatni takomillashtirish, bozor xizmatlarining tarmoq tuzilmasida innovatsion tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu xizmatlar ko'rsatish aholi turmush darajasi va sifatini yanada oshirilishini ta'minlash imkonini beradi.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. www.lex.uz
2. O`zbekiston Respublikas prezidenti Shavkat Mirziyoyev PQ-4742 sonli qarori.
3. Davlat statistika qo`mitasi. www.stat.uz